

Internet tilining adabiy tilga ta'siri

Toshboboyeva Iroda

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti filologiya fakulteti

o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Xushboqov Qobil

Ilmiy rahbar

Annotatsiya: Ushbu maqolada global axbarotlashuv jarayonida internet tilining adabiy tilga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida tilda yuz berayotgan holatlar, neologizmlar, so'z va gaplarning qisqarishi ya'ni tejamkorlik asosidagi tamoyillar, termin va atamalarni ko'payishi, emotsiyalar, turli xil belgi va ishoralarni qo'llash orqali fikrlarni ifodalashning foydali va zararli tomonlari yoritilgan. Bundan tashqari, uslublar qorishi va punktuatsion me'yorlarga alohida urg'u beriladi. Maqola yakunida tilning o'ziga xosligini saqlab qolish bo'yicha bir qancha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: internet tili, adabiy til, neologizm, nutq madaniyati, raqamli muloqot, tejamkorlik tamoyili, til me'yorlari, uslubiy qorishiq, jargon, globallashuv.

Annotation: This article analyzes the influence of internet language on literary language in the process of global information technology development. The research highlights linguistic phenomena such as neologisms, the shortening of words and sentences (economy principles), the increase of terms and definitions, as well as the beneficial and harmful aspects of expressing thoughts through emotions, various signs, and symbols.

Furthermore, special emphasis is placed on the mixing of styles and punctuation norms. At the conclusion of the article, several recommendations are provided for preserving the unique identity of the language.

Keywords: internet language, literary language, neologisms, speech culture, digital communication, principle of economy, language norms, stylistic blending, jargon, global informatization.

Аннотация: В данной статье анализируется влияние интернет-языка на литературный язык в процессе глобальной информатизации. В ходе исследования освещаются процессы, происходящие в языке: неологизмы, сокращение слов и предложений (принципы экономии), рост терминов и понятий, а также полезные и вредные стороны выражения мыслей через эмоции, различные знаки и символы. Кроме того, особое внимание уделяется смешению стилей и пунктуационным нормам. В завершение статьи дано несколько рекомендаций по сохранению самобытности языка.

Ключевые слова: интернет-язык, литературный язык, неологизмы, культура речи, цифровая коммуникация, принцип экономии языковых средств, языковые нормы, стилистическое смешение, жаргонизмы, глобальная информатизация.

Kirish

Zamonaviy axborot texnologiyalari va internetning hayotimizga shiddat bilan kirib kelishi natijasida tilshunoslikda yangi va qiziqarli jarayonlar kuzatilmoqda. Bugungi kunda internet muloqoti nafaqat muloqot vositasi, balki ona tilimizga bevosita ta'sir o'tkazuvchi kuchli omilga aylandi. Ko'pincha virtual olam tili faqat salbiy jihatdan, ya'ni "tilni buzuvchi vosita" sifatida baholansa-da, aslida bu jarayon o'zbek tili rivoji uchun ham ijobiy

imkoniyatlar, ham ma'lum xavf-xatarlarni taqdim etadi. Internet tili — bu tilning jonli va dinamik ekanligidan dalolat beruvchi o'zgaruvchan jarayondir. Bir tomondan, raqamli muhit ta'sirida o'zbek tili yangi zamonaviy terminlar bilan boyimoqda va axborot uzatish tezligi oshmoqda. Ikkinchi tomondan, tezkor muloqot jarayonida adabiy til me'yorlariga e'tiborsizlik qilish, imlo xatolariga yo'l qo'yish kabi holatlar yoshlarning nutq madaniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli, internet nutqining adabiy tilga ijobiy va salbiy ta'sirini xolis o'rganish, tilning o'ziga xosligini saqlab qolish uchun muhim hisoblanadi.¹

Insoniyat tarixida har bir yangi texnologiya tilning rivojlanishiga o'z ta'sirini o'tkazgan. Biroq internetning paydo bo'lishi til tizimida shunchaki o'zgarish emas, balki haqiqiy "evolyutsiya"ni boshlab berdi. Bugungi kunda internet shunchaki ma'lumot qidiradigan joy emas, balki millionlab insonlar har soniyada muloqot qiladigan ulkan lingvistik (tilga oid) makondir.² Ushbu jarayonni "evolyutsiya" deb atashga bir qancha sabablar bor: Yangi muloqot muhiti: Ilgari til faqat og'zaki va an'anaviy yozma shaklda mavjud edi. Internet esa ushbu ikki shaklni birlashtirgan "yozma-so'zlashuv" nutqini yuzaga keltirdi. Bu tilda biz yozamiz, lekin go'yo gaplashayotgandek erkin va tezkor harakat qilamiz. Chegaralarning yo'qolishi, raqamli makon milliy tillarning bir-biri bilan uzviy bog'lanishiga sabab bo'ldi. O'zbek tili ham jahon tillari bilan bevosita muloqotga kirishib, ulardan yangi tushunchalarni qabul qila boshladi. Bu tilning yashash qobiliyati yuqori ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, internetda adabiy tilning qat'iy qoliplari biroz yumshadi. Bu esa tilning jamiyatning barcha qatlamlariga, ayniqsa yoshlarga yaqinlashishiga, ularning ehtiyojlariga moslashishiga imkon berdi.

Leksik "portlash": "layk"lardan "Xayp"largacha bo'lgan jarayon. Internet tilining adabiy tilga ta'siri, eng avvalo, uning lug'at boyligida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu jarayonni "leksik portlash" deb atash mumkin, chunki qisqa vaqt ichida tilimizga juda ko'p yangi birliklar kirib keldi. Ushbu o'zgarishlarni ikki yo'nalishda tahlil qilish mumkin.

¹ Mirziyoyev Sh.M. "O'zbek tili bayrami munosabati bilan O'zbekiston xalqiga tabrigi". // "Xalq so'zi" gazetasi, 2020-yil. (Davlatimiz rahbarining til rivoji haqidagi qarashlari uchun)

² Safarov Sh. "Kognitiv tilshunoslik". – Jizzax: "Sangzor", 2006. (Inson tafakkuri va til o'zgarishi munosabati uchun).

Birinchi, neologizmlar va o'zlashma so'zlar masalasi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali "layk", "post", "blogger", "stori", "xayp", "strit-art" kabi so'zlar kundalik muloqotning ajralmas qismiga aylandi. Bu so'zlarning aksariyati ingliz tilidan kirib kelgan bo'lsa-da, ular o'zbek tilining grammatik qoidalariga moslashmoqda. Masalan, biz "post yozmoq", "layk bosmoq" birikmalarini ishlatamiz.³ Bu jarayon tilning zamon talablariga moslashayotganini va yangi tushunchalar uchun tayyor ekanligini ko'rsatadi. Ikkinchi, mavjud so'zlarning ma'no o'zgarishi (semantik transformatsiya) kuzatilmoqda. Masalan, o'zbek tilidagi "sahifa", "devor", "oqim", "guruh" kabi so'zlar internet muhitida mutlaqo yangi, raqamli ma'no kasb etdi. Bu esa tilning ichki imkoniyatlari hisobiga boyiyotganidan dalolat beruvchi ijobiy holatdir.⁴ Biroq, bu "portlash"ning salbiy tomoni shundaki, ba'zan adabiy tildagi tayyor muqobillar turganda, o'zlashma so'zlarga ruju qo'yiladi. Masalan, "xabar" turganda "messij", "yoqtirish" turganda "layk" so'zining ommalashishi tilning milliy o'ziga xosligiga biroz putur yetkazishi mumkin. Shunga qaramay, bu so'zlarning aksariyati vaqt o'tishi bilan saralanadi va faqat eng zarurlari tilda qoladi.

VAQT- OLTIN: TIL IQTISODIYOT VA QISQARTMALAR MADANIYATI.

Internet muloqotining eng muhim xususiyatlaridan biri — bu uning yuqori tezligidir. Internet davrida foydalanuvchilar axborotni imkon qadar tezroq uzatishga intiladilar. Bu intilish tilshunoslikda "til tejamkorligi tamoyili" deb ataladi.⁵ Ushbu jarayon adabiy til me'yorlariga ham ijobiy, ham salbiy ma'noda o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Birinchi, grafik qisqartmalar va abbreviaturalar ommalashmoqda. Masalan, kundalik yozishmalarda "rahmat" so'zi o'rniga "rax", "salom" o'rniga "slm", "xo'p" o'rniga "xp" kabi qisqartmalarining ishlatilishi vaqtni tejashga xizmat qiladi. Bu holat muloqotning dinamikasini oshiradi va fikrni qisqa, lo'nda ifodalash ko'nikmasini shakllantiradi. Bunday tejamkorlik ijobiy ma'noda nutqning ortiqcha bezaklardan xoli bo'lishiga olib keladi. Ikkinchi, sintaktik soddalashuv jarayoni kuzatilmoqda. Internet tilida murakkab

³ Daminov A. "O'zbek tilida internet terminlarining shakllanish xususiyatlari". // "Til va adabiyot ta'limi" jurnali, 2021, 4-son.

⁴ Lutfullayeva D. "Mustaqillik davri o'zbek tili neologizmlari". – Toshkent: "Akademya", 2017.

⁵ Safarov Sh. "Kognitiv tilshunoslik". – Jizzax: "Sangzor", 2006. (Inson tafakkuri va til o'zgarishi munosabati uchun).

qo'shma gaplar o'rniga qisqa, sodda gaplardan foydalanish afzal ko'riladi. Bu axborotning tez qabul qilinishini ta'minlaydi. Ayniqsa, yoshlar o'rtasida fikrni bitta so'z yoki qisqa ibora bilan ifodalash mahorati rivojlanmoqda, bu esa tilning kommunikativ imkoniyatlarini yangi bosqichga olib chiqadi. Biroq, ushbu tejamkorlikning salbiy oqibatlari ham mavjud. Ortiqcha qisqartmalar yozma savodxonlikka putur yetkazishi mumkin. ⁶Talaba yoki o'quvchi virtual olamdagi qisqartmalarga o'rganib qolishi natijasida rasmiy yozishmalarda ham xatolarga yo'l qo'yishi kuzatiladi. Shuningdek, so'zlarning asossiz ravishda qisqartirilishi o'zbek tilining boy va rang-barang ifoda vositalarini qashshoqlashtirib qo'yishi xavfi bor. Shunday ekan, til tejamkorligi va adabiy me'yori o'rtasidagi oltin muvozanatni saqlash muhim ahamiyatga ega.

Hissiyotlar alifbosi.Emojilar.Internet muloqotining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, u yozma nutq bo'lishiga qaramay, og'zaki nutqning jonli hissiyotlarini ham ifodalashga intiladi. Bu jarayonda an'anaviy punktuatsiya (tinish belgilari tizimi) va yangi paydo bo'lgan vizual vositalar — emojilar (smayllar) o'rtasida qiziqarli munosabat yuzaga kelmoqda. Birinchidan, emojilarning kommunikativ vazifasi kengaymoqda. Adabiy tilda matnning ohangi (kinoya, quvonch, hayrat) faqat so'zlar va tinish belgilari orqali berilgan bo'lsa, internet tilida bitta emoji butun bir gapning ma'no yukini o'z zimmasiga olishi mumkin. Masalan, gap oxiridagi "jilmayish" belgisi suhbatning samimiyligini ko'rsatsa, "hayron qolish" belgisi so'roq yoki undov belgilarining vazifasini yanada kuchaytiradi. ⁷Bu ijobiy ma'noda yozma nutqning hissiy boyligini oshiradi va suhbatdoshlar o'rtasidagi tushunmovchiliklarning oldini oladi. Ikkinchidan, tinish belgilarining transformatsiyasi kuzatilmoqda. Internet nutqida nuqta qo'yish ba'zan "suhbat tugadi" yoki "jiddiylik/zardalilik" ma'nosini bera boshladi. Ko'p nuqtalar yoki undov belgilarining ketma-ket ishlatilishi esa hissiyot darajasini ko'rsatuvchi yangi uslubiy vositaga aylandi.

⁶ Mahmudov N. "Til tejamkorligi tamoyili va o'zbek tili nutqi". – Toshkent, 2011. (Tejamkorlik haqidagi asosiy ilmiy manba).

⁷ To'xliyev B. "O'zbek tili punktuatsiyasi asoslari". – Toshkent: "O'qituvchi", 1995. (An'anaviy tinish belgilari bilan solishtirish uchun).

Bunday o'zgarishlar tilning grafik tizimi yanada hayotlashayotganidan dalolat beradi⁸. Biroq, ushbu jarayonning salbiy oqibatlari ham mavjud. Emojilarga haddan tashqari tayanib qolish natijasida so'z boyligining cheklanishi va fikrni so'z bilan ifodalash ko'nikmasining pasayishi xavfi bor. Shuningdek, adabiy tilning qat'iy punktuatsiya qoidalarini (masalan, vergulning qo'yilish o'rinlarini) unutish yoki ularni keraksiz deb hisoblash yozma savodxonlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Kelajakda emojilar tinish belgilarini butunlay siqib chiqara olmaydi, lekin ular bilan parallel ravishda nutqning ajralmas qismiga aylanishi muqarrardir.

Uslublar qorishishi. An'anaviy tilshunoslikda har bir uslubning (rasmiy, ilmiy, badiiy, so'zlashuv) o'z "chegarasi" bo'lgan. Biroq internet bu chegaralarni yuvib yubordi va natijada "uslubiy demokratlashuv" deb ataladigan qiziqarli jarayon yuzaga keldi. Birinchidan, rasmiy nutqning xalqqa yaqinlashishi kuzatilmoqda. Bugungi kunda davlat tashkilotlari, vazirliklar va yirik kompaniyalar o'zlarining ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida quruq, rasmiy tildan voz kechib, oddiyroq va jonliroq uslubda muloqot qilmoqdalar. Bu ijobiy holat bo'lib, axborotning tez yetib borishi va xalq bilan muloqotning samimiylashishiga xizmat qiladi. Ilgari faqat ko'cha-ko'yda ishlatilgan iboralar endi nufuzli nashrlarning "sarlavha"lariga ko'chib o'tmoqda. Ikkinchidan, badiiy va so'zlashuv uslubining sintezi yuzaga kelmoqda. Internetda yozilayotgan postlar yoki bloglardagi matnlarda badiiy tasvir vositalari bilan bir qatorda kundalik so'zlashuv unsurlari, hatto sheva elementlari ham aralashib ketmoqda. Bu esa tilning hayotiyiligini ta'minlaydi va o'quvchi bilan yaqin aloqa o'rnatishga yordam beradi.⁹ Biroq, bu jarayonning jiddiy salbiy tomoni — me'yoriy intizomning yo'qolishidir. Rasmiy uchrashuvlarda yoki ilmiy tadqiqotlarda ham internetga xos "erkin" uslubning aralashib qolishi nutq madaniyatining pasayishiga olib kelishi mumkin. Jargonlar va slenglarning (masalan, "daxshat", "gap yo'q", "vabshe") o'rinli-o'rinsiz qo'llanilishi adabiy tilning jiddiyligiga putur yetkazadi.

⁸ Safarov Sh. "Pragmalingsvistika". – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2008. (Muloqotdagi vizual vositalar tahlili uchun)

⁹ To'xliyev B. "O'zbek tili metodikasi". – Toshkent, 2010.

Shunday ekan, qaysi joyda qanday uslubda muloqot qilish kerakligini farqlash — zamonaviy til egasining eng muhim ko‘nikmasidir. Internet tili o‘zbek leksikasiga nafaqat yangi atamalarni, balki ma’lum bir guruhlar orasida qo‘llaniladigan jargon va argolarni ham olib kirdi. Ilgari bu kabi so‘zlar tor doirada (masalan, faqat kompyuter ustalari yoki ma’lum bir qatlamlar orasida) ishlatilgan bo‘lsa, bugun ular ijtimoiy tarmoqlar tufayli hamma uchun umumiy so‘zlarga aylanib bormoqda.

Jargonlar. Internetda asosan IT-mutaxassislar, geymerlar va marketologlarning professional jargonlari ommalashmoqda. Masalan, "proshivka qilmoq", "ban bermoq", "akkauntni o‘chirmoq", "target yoqmoq" kabi birikmalar endi nafaqat mutaxassislar, balki oddiy foydalanuvchilar nutqida ham ijobiy ma’noda (yangi tushunchani tez tushuntirish uchun) qo‘llanilmoqda. Bu tilning texnik imkoniyatlarini kengaytiradi. Argo (Ko‘cha yoki internet slengi): Bu qatlam ko‘proq hissiyotga tayanadi va ko‘pincha adabiy tildagi so‘zlarning buzilgan shakllaridan iborat bo‘ladi. Masalan, "vabshe", "shok", "tema", "daxshat", "krasavchik" kabi so‘zlar internet foydalanuvchilari orasida "universal" muloqot vositasiga aylandi. Ularning ijobiy tomoni — nutqqa emotsionallik va yaqinlik berishidir.¹⁰Agarda yozuvchi yoki so‘zlovchi barcha holatlarda (xursand bo‘lganda ham, hayron qolganda ham) faqat "daxshat" yoki "super" kabi argolarni ishlatib, uning boy o‘zbek tilidagi sinonimlarni ishlatish qobiliyati pasayadi. Ma’naviy-etik me’yorlar: Argalar ko‘pincha erkin va biroz qo‘pol bo‘lgani uchun, ular yoshlar nutqida kattalarga nisbatan hurmat va rasmiy muloqot madaniyatini sustlashtirishi mumkin.

Xulosa: Mazkur olib borilgan tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, internet tili adabiy tilni to‘liq buzib yubormaydi, balki uni yangi bosqichga olib chiqadi. Internet tufayli tilimiz texnologik jihatdan boyidi, nutqimizda aniqlik va ba’zi o‘rinlarda tezlik ortdi. Shu bilan birgalikda, imlo qoidalariga e’tiborsizlik va argolarning ko‘payishi kabi sabiy jihatlari ham mavjud. Ammo internetni tilimizni buzuvchi omil sifatida ko‘rib xavotirga tushgan bilan muammo bartaraf etilmaydi, aksincha ijobiy tomonlarni axtarib yechim topish kerak.

¹⁰ Lutfullayeva D. "Internet muloqoti va unda slenglarning qo‘llanilishi". // "Filologiya masalalari" jurnali, 2022-yil.

Masalan ijtimoiy tarmoqlarda ham xuddi tez mashhurlikka erishadigan vaynlar singari, adabiy til qoidalariga rioya qilish to'g'risidagi videolarni ham trendga olib chiqish kerak, asosan yoshlarni e'tiborini og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish kerak. Shuningdek, Emojilar so'zni siqib chiqarmasligi uchun, ularni faqat his-tuyg'uni kuchaytiruvchi vosita sifatida ishlatish (masalan, so'zni o'rniga emas, so'zdan keyin qo'yish) qoidasini targ'ib qilish. Milliy "Stiker-paketlar" va Terminar: Faqat xorijiy jargonlar emas, balki o'zbekcha zamonaviy, qiziqarli va "kruto" (zo'r) eshitiladigan milliy neologizmlarni yaratish va ommalashtirish (masalan, "xayp" o'rniga "shov-shuv" emas, balki yanada zamonaviyroq va jozibaliroq muqobillar ustida ishlash).

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. "O'zbek tili bayrami munosabati bilan O'zbekiston xalqiga tabrigi". // "Xalq so'zi" gazetasi, 2020-yil. (Davlatimiz rahbarining til rivoji haqidagi qarashlari uchun)
2. Safarov Sh. "Kognitiv tilshunoslik". – Jizzax: "Sangzor", 2006. (Inson tafakkuri va til o'zgarishi munosabati)
3. Daminov A. "O'zbek tilida internet terminlarining shakllanish xususiyatlari". // "Til va adabiyot ta'limi" jurnali, 2021, 4-son.
4. Lutfullayeva D. "Mustaqillik davri o'zbek tili neologizmlari". – Toshkent: "Akademnashr", 2017.
5. Mahmudov N. "Til tejamkorligi tamoyili va o'zbek tili nutqi". – Toshkent, 2011. (Tejamkorlik haqidagi asosiy ilmiy manba).
6. ¹ To'xliyev B. "O'zbek tili punktuatsiyasi asoslari". – Toshkent: "O'qituvchi", 1995. (An'anaviy tinish belgilari bilan solishtirish uchun).
7. Safarov Sh. "Pragmalingvistika". – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2008. (Muloqotdagi vizual vositalar tahlili uchun)
8. To'xliyev B. "O'zbek tili metodikasi". – Toshkent, 2010.
9. Lutfullayeva D. "Internet muloqoti va unda slenglarning qo'llanilishi". // "Filologiya masalalari" jurnali, 2022-yil